

OBI-HAYOT RESURLARINI IFLOSLANISHINI OLDINI OLIISH CHORALARI VA IMKONIYATLARI.

Kamolov Nurbek Aspiya o'g'li

Toshkent Hidrometeorologiya Texnikumi

Maxsus fanlar O'qituvchisi

Annotatsiya. *Sayyoramizda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ekologik muammolar atrof-muhit va inson salomatligiga zarar yetkazishi barobarida aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojini ham tobora oshirmoqda. Hozirda suvning yetishmasligi va ifloslanishi dolzarb muammo bo'lib uning ifloslanishini oldini olish, chora tadbirlari haqida so'z yuritiladi.*

Mavzuning dolzarbligi. Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida jamiyatimizning barcha jabhalarida olib borilayotgan islohotlar jarayonida tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, rivojlanishga xizmat qiladigan ilm-fan yangiliklaridan oqilona foydalanish va xalqimiz turmush farovonligini yanada oshirishga qaratilayotgan e'tibor o'z samaralarini berayotganini alohida ta'kidladi.

Hozirda mazkur yo'nalishda ishlab chiqilgan dasturlarda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich ijro etilayotgani tufayli iste'molchilarga ichimlik suv yetkazib berish tizimi tobora takomillashayotir. Bu jarayonda markazlashgan suv ta'minotidan uzoqda yashaydigan qishloqlar aholisining obi hayotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga alohida e'tibor qaratilayotir. Mavjud bo'lgan yer osti chuchuk suv manbalarini asrab-avaylashni, yangi zaxiralarini izlab topishni va o'zlashtirishni, obi-hayot resurslari ifloslanishining oldini olishga yo'naltirilgan vazifalarni hayotga izchil tatbiq etishni taqozo qilayotir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimiz aholisi ichimlik suv ta'minotining sakson foizi yer osti chuchuk suv manbalari hisobiga to'g'ri keladi.

Shu bois bunday manbalar ifloslanishi va yer osti chuchuk suvi kamayib ketishining oldini olish doimiy e'tibordadir. Ana shu maqsadda respublika ahamiyatiga ega o'n bir, viloyatlardagi sakkiz yer osti chuchuk suvi hosil bo'ladigan manbalarga alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud maqomi berildi. Bunday hududlarda tabiatni muhofazalash idoralari, geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi xodimlari hamkorlikda muntazam ravishda kuzatuv va monitoring ishlarini olib borayotir. Suv bu – tirik organizmlar tarkibiga kiruvchi muhim modda ya'ni yerdagi hayotning asosi hisoblanadi. Suvning hamma tirik mavjudotlarning va insonning hayotidagi birlamchi roli shundan iboratki, suv amalda shunday muhitki unda hayot faoliyatning hamma jarayonlari bo'lib o'tadi. Suv organizmimizda tana haroratini boshqaradi, nafas olishda havoni namlaydi, oziq moddalar va kislorod bilan tananing hamma xujayralarini ta'minlaydi, hayotiy muhim organlarni himoya qatlamini hosil qiladi va himoyalaydi, ovqatni energiyaga aylanishiga yordam beradi, organlar tomonidan oziq moddalarni o'zlashtirilishiga yordam beradi, hayot faoliyati chiqitlari va shlaklarini organizmdan olib chiqadi va boshqa shunga o'xshash asosiy vazifalarni bajaradi. Yerdagi suv zahirasi – 1mln 454 ming m³ ni tashkil etadi, undan 2% dan kamrog'ini chuchuk suv zahirasi tashkil etsa, undan - 0,3% dan foydalanish imkoniga egamiz. Chuchuk suvlarning katta qismi

muzliklarda joylashganligi tufayli ularni ishlatib bo'lmaydi. Dunyo ummonidagi suvning umumiy hajmi 1370 mln km³ ni tashkil etadi, ya'ni yerning ustida - 1,39 x 10¹⁸ t, atmosferada esa - 1,3 x 10¹³t. Suvni ishlab chiqarishdagi sarfi: 1t kimyoviy tola ishlab chiqarish uchun 2000m³, 1t gazeta qog'ozi ishlab chiqarish uchun 900m³, guruch uchun 4000m³ 1t. Suv zahiralardan bunday xo'jasizliklaracha foydalanish uning tezroq tugashiga olib keladi.

Hozirgi vaqtga kelib Yer yuzasining 60% maydoni ichimlik suvini yetishmasligidan yoki yo'qligidan aziyat chekmoqda. Sayyoramizda 470 million odam suv yetishmasligiga to'qnash kelmoqda. Hamda 22 milliondan ortiq bola har yili suv yetishmasligidan va ifloslangan suvni iste'mol qilib nobud bo'lmoqda. Suvga turli elementlarni kelib qo'shilishi natijasida uni inson iste'moli uchun yaroqsiz holatga olib keladi. Buni suvning aylanishinigi hamma bosqichlarida kuzatish mumkin. Yer usti suvlari, yer osti suvlari va yerunt suvlarini ifloslanishiga maishiy (oqova quvurlari), sanoat chiqindilari, qishloq xo'jaligi sabab bo'ladi. Ifloslantiruvchilar suvga turli yo'llar bilan kelib qo'shiladi, lekin doimo inson ishtirokida sodir bo'ladi: bu baxtsiz hodisalar natijasida- chiqitlar tashlash va boshqa hodisalar orqali jilg'alarga, daryolarga, ko'llarga, dengizlarga va okeanga turli fizik, kimyoviy yoki biologik moddalarni kelib tushadi. Suvning ifloslanishiga juda ko'p sabablar bor.

Ularga oqova suvlar, qattiq chiqitlar, evtrofikatsiya, anorganik chiqitlarning zaharliligi, suvning mikrobiologik ifloslanganligi, pestitsidlar, neftning to'kilishi va boshqalarni misol qilish mumkin. Oqova suvlarning taxminan 55% daryo suvlariga tozalanmasdan tashlab yuboriladi. Qishloq xo'jaligida ekinlar uchun ishlatilgan suvlar tarkibida mniral o'g'itlar qoldiqlarini (K,N,P shuningdek og'ir metallar) hamda qishloq xo'galigida ishlatiladigan defoliant pestitsid fungitsidlar qoldiqlarini saqlaydi. Xo'jalikda ishlatilgan suvlar tarkibida turli xil organik moddalar, yog'lar, sanoat oqova suvlari tarkibida neft mahsulotlari, og'ir metal tuzlari fenol shuningdek organizm va atrof muhit uchun zararli bo'lgan kimyoviy moddalar bo'ladi. Ushbu zararli moddalar oqova suvlar bilan to'g'ridan to'g'ri daryolarga va ochiq suv xavzalariga kelib tushadi. Daryolar suvini ifloslanishini oldini olishda kimyoviy usullarni roli juda muhimdir. Atrof muhitni muhofaza qilish va suv boyliklaridan oqilona foydalanish bilan murakkab kompleks masalalarni yechish, yetarlicha va keng ishonchli tajriba asosida suvning kimyoviy tahlilini kundan kunga o'ziga xosligi, sezgirligi aniqligi oshib boradigan kimyoviy uslublarda ro'yobga chiqariladi. Amudaryo va Sirdaryo suvlari tarkibidagi minerallar uchun ruxsat etilgan normalar (REN) 1.0g/litrdan oshmasligi lozim. Termiz shahri atrofida o'tishda Amudaryo suvi menirallari miqdori o'rtacha 698,1mg/l bo'lsa, Nukus shahri yaqinida 1,8 g/ml (1,8REN) yani ruxsat etilgan normadan 1,8 barovar ko'p bo'lgan. Sirdaryo o'rta qismida menirallashuvi 682,5mg/l bo'lsa, Chinoz atrofida olingan namuna miqdori o'rtacha 1049,5 mg/l, maksimum miqdori 1466,6mg/l (1,5)(REN) ga teng bo'lgan.

Amudaryo va Sirdaryo suvlarining quyi miqdorlarida og'ir metallarning umumiy miqdori ko'p ekanligi kuzatildi, ya'ni Hg, Cd, Cr, Zn, Fe elementlari miqdorining (REN) dan 1-3marta ortiqligi aniqlandi. Ifloslantiruvchi moddalar miqdorining REN dan oshishiga asosiy sabablaridan biri suv havzalarining ifloslanishi kollektor –drenaj, sanoat va kommunal xo'jaligidan hosil bo'ladigan oqova suvlarning daryo suvlariga tozalanmasdan tushishidir. Daryo suvlarida og'ir metallar asosan xlor, gidroksil, sulfat anionlari bilan kompleks holatda migratsiya qilar ekan. Olingan natijalardan daryo suvlarini ichimlik suvi maqsadida

ishlatishdan oldin suv tozalash inshootlarida foydalanish mumkin. Amudaryo va Sirdaryo suvlari tarkibining vaqt va masofada o'zgarish qonuniyatlari, daryolar suvi monitoring muammolari batafsil muhokama qilinadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida Olingan natijalar daryo suvlarini muhofaza qilishda kimyoviy usullardan, analitik usullarning roli muhimligini tasdiqlaydi. Suv havzalarini himoya qilish uchun muhim chora – tadbirlarni amalga oshirish ya'ni suvlarni ifloslanish darajasini qattiq nazoratga olish, korxonalarda zamonaviy tozalash uskunalari qurish, suvni iqtisod qilish, suv havzalari sohillarda o'simliklar o'tqazish va ularni himoya qilish, tabiatdan me'yorida foydalanish, qo'riqxonalar hududlarini tashkil etish zarur. Xalq naqlida aytiladiki: birinchi non – bu non ikkinchi non – bu ruh, uchinchi non – bu suvdir Akademik Vernadskiy V. aytganidek “Suv sayyoramizning tarixida asosiy tashkil etuvchi hisoblanadi. Tabiatda xech bir jism yo'qki, asosiy, keng ko'lamli, geologik jarayonlarga ta'siri bo'yicha suvga tenglashtirish mumkin bo'lgan. Yer sharida xech bir tirik jins yo'qki tarkibida suv bo'lmagan, hamma yerdagi moddalar suv tomonidan egallab olingan.” Shuning uchun suvni qadriga yetishimiz va uni ehtiyotlashimiz lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA RESURLAR:

1. Z.Sh. Karimov “Gidrokimyo” Toshkent 2000
2. <http://images.google.ru> internet sayti
3. <http://www.mobildi.ru/mobildi/water/> internet sayti
4. <http://www.cawater-info.net/news/water/i/asia> internet sayti